

## HAR KUNING NAVRO'Z BO'LSIN ONA YURTIM.

*O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi Ko'chma ko'rgazmalar bo'limi bosh mutaxassisi:  
Raxmatullaeva Nigoraxon Nizomiddinovna*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada “Navro'z bayrami” va uning kelib chiqishi haqida shuningdek 2024 yil 18-19 mart kunlari O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida “Navro'z bayrami”ga bag'ishlangan Open Air Fest tadbiri va unda o'tkazilgan saxna ko'rinishlari, mahorat darslari, muzeyda tun kabi loyihalar haqida batafsil yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Navro'z bayrami, jonli muzey, open air fest, mahorat darsi, bazar art,

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о мероприятиях, грандиозных проектах, сценических представлениях проводимых в государственном музее прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана в рамках мероприятия Open air в честь праздника Навруз который состоялся 18 -19 марта этого года и "Ночь в музее".

**Ключевые слова:** праздник Навруз, живой музей, Open Air Fest, мастер-класс, базар Art,

Navro'z bu tinchlik, totuvlik, farovonlik bayrami. Millati, dinidan qat'iy nazar, shu yurtda yashayotgan barcha millatlar, elatlar uchun birdek sevimli bayram hisoblanadi. Ushbu bayramni har bir inson intiqib kutadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o'zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to'la namoyon qilib kelayotgan Navro'z eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi.



“Navro'z” so'zi asli forscha so'z bo'lib, “Yangi kun” degan ma'noni ifodalaydi. Navro'z bayrami qachon va qanday vujudga kelganligini aniq malumotlar keltirilmagan. Navro'zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatları, ya'ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog'liq.

Har yili yurtimizda bayram arafasida o'tkaziladigan turli tantanali marosimlar, qiziqarli sayllar hamda bellashuvlarning o'tkazilishi an'anaga aylanib ulgurgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yilgi “Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi” qarorda bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko'rgazmalari,

milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda ularning ko‘rgazma-savdolari va tanlovlarini uyushtirish vazifalari ham belgilangan edi.

Shunga muvofiq ravishda O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida ham “Navro‘z umumxalq bayrami” ning milliy qadriyat va an’analarimiz hamda zamonaviy tajribalar asosida yuqori saviyada, ommaviy sayillar shaklida tashkil etildi. 2 kun davom etgan “Open air fest” tadbiriga nafaqat mahalliy aholi, balki xorijiy sayyoohlar ham faol ishtirk etdilar. Tadbir boshlanish arafasida Yunus Rajabiy mahallasining kirish qismidan karnay–surnay sadolari ostida barcha ishtirokchilar bilan chorlov tashkil etildi.



Chorlov orqali ko‘plab tomoshabinlar tadbiriga tashrif buyurdilar. Tadbir doirasida O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida bahor faslining milliy taomi bo‘lmish “Sumalak” tayyorlandi. Sumalak tayyorlash jarayonida tashrif buyurgan sayyoohlar ham katta qiziqsh bilan ishtirok etdilar va sunalak milliy taomi haqida qiziqarli rivoyatlar va ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

Bo‘lib o‘tgan Navro‘z tadbirida katta konsert dasturi uyushtirildi hamda milliy kuy qo‘shiqlar, laparlar, askiyalar, turli xil saxna ko‘rinishlari namoyish etildi. Bundan tashqari tashrif buyurgan mehmonlar Milliy o‘yinlarimizdan “Arqon tortish” “Oq terakmi, ko‘k terak” kabi milliy xalq o‘yinlarini o‘ynab bundan zavqlandilar.

Tadbir doirasida “Bazar Art”- hunarmandlar yarmarkasi tashkil qilindi. Unda turli qo‘l mehnatiga asoslangan amaliy san’at buyumlar yani, kashtachilik namunalari, milliy matolar (sharflar), zargarlik buyumlari va shu kabilar o‘rin oldi. Bu esa tashrif buyurgan nafaqat mahalliy aholini balki sayyoohlarni ham qiziqtirmay qolmadi. Kelgan har bir tadbir tashrifchisi bir dona bo‘lsa ham amaliy san’at namunasidan harid qildi desak xato bo‘lmaydi.



“Navro‘z bayrami” arafasida tashkil etilgan tadbir kechki soat 22:00ga qadar davom etdi. Bu orqali “Muzeyda tun” hamda “Jonli muzey” loyihalari ham amalga oshirildi. Ushbu loyihada kutilgandan ko‘ra ko‘proq tashrifchilar tashrif buyurdilar. Tunda muzey bo‘ylab tashkil etilgan ekspozitsiyani maxsus yoritgichlar (fanarlar) yordamida ko‘rish tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.



Tadbirning keying kunida ham qiziqarli tomoshalar bolalar uchun o‘yinlar tashkil qilindi, bundan tashqari ko‘plab mahorat darslari tashkil etildi. Bulardan biri Gulchehra Abduvarisovna “Art studiya automaniya” tomonidan tashkil etilgan munchoqlardan bilak uzuklar yasash hamda pryaniklarni bezatishdir. Ushbu mahorat darsiga asosan jajji bolajonlar katta qiziqish bildirib o‘z qo‘llari bilan munchoqlardan bilak uzuklar yasab ko‘rdilar va pryaniklarni o‘z qo‘llari bilan bezadilar. Open Air Fest tadbiri doirasida bolalar moda namoyishi ham bo‘lib o’tdi. Namoyishda “Haidallimodels” modalar uyi bolalari dizayner “Oynur collection” bolalar liboslarini namoyish etishdi. Kichkintoylar o‘z iqtidorlarini sahnada namoyish etib davomiy qarsaklarga sazavor bo‘lishdi



Tayyor bo‘lgan sumalaklar kelgan har bir mehmonga ulashildi. Ushbu katta tadbiriga 1000 dan ziyod tomoshabinlar tashrif buyurdilar.



Har bir oila va jamiyatda nishonlanadigan ko‘pgina marosim, an’ana va madaniy hodisalar mavjud. Bayramning eng muhim vazifalaridan biri bu ommaviy yig‘inlar bo‘lib, u yerda madaniy almashinuv va tadbirlar marosimlarga qo‘shib o‘tkaziladi. Bayram tadbirlari bahor ayyomida borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e’tiborni aks ettiradigan, turli xil urf odatlarni va marosimlarni o‘rganish, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydi.